

HARBIY XIZMATCHILAR JINOIY JAVOBGARLIGI XUSUSIYATLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Achilov Alisher Temirovich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasini
dotsenti, yu.f.b.f.d (PhD), dotsent*

Asqarov Sunnat Isomiddin o'g'li

Hoshimov Humoyun Husniddin o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti kursantlarini*

Vatanni himoya qilish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, butun xalq oldida turgan muqaddas burch hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 152-moddasida: «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi», - deb belgilangan.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davri, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojaro va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Ana shunday g'oyat mas'uliyatli vaziyatda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash va himoya qilishda Qurolli Kuchlarimiz, xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning o'rnini va ahamiyatini tobora ortib bormoqda. Bu haqiqatni hisobga olgan holda, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Hozirgi kunda jinoyat qonunchiligi Qurolli Kuchlarni barpo etishning yangi tendensiyalari hamda harbiy huquq-tartibot va intizomni mustahkamlashning zamonaviy sharoitlardagi talablarini o'zida aks ettiradi. Mazkur talablar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi harbiy qurilishni tartibga solish bo'yicha talablari, Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari va boshqa asosiy harbiy qonunlarida mustahkamlangan.

Jangovar tayyorgarlikning eng muhim omillaridan biri bo'lib benuqson harbiy intizom hisoblanadi. Metin intizomsiz jangovar tayyorgarlik bo'lishi mumkin emas. Bu tarixdan tekshirilgan va isbotlangan. Shu bois, Qurolli Kuchlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni, ayniqsa harbiy xizmatni tashkillashtirish, shaxsiy tarkibni tarbiya qilish, intizomi sust bo'lgan ba'zi harbiy xizmatchilarning ustidan nazoratni o'rnatishdagi kamchiliklarni bartaraf qilish ishlari olib borilmoqda. Harbiy intizomni va ustav tartibini buzganlik uchun harbiy xizmatchilar Qurolli Kuchlar Intizom nizomi qoidalari bo'yicha javobgarlikka tortiladilar. Ma'muriy

huquqbuzarliklarni sodir etgan harbiy xizmatchilarning javobgarligi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar, bu harbiy xizmatni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, boshqa harbiy tuzilmalar va organlarda chaqiriq bo'yicha yoki shartnoma asosida o'tayotgan harbiy xizmatchilar tomonidan, shuningdek harbiy yig'inlarni o'tashga chaqirilgan vaqtda zaxiradagi fuqarolar tomonidan harbiy xizmatni o'tashning o'rnatilgan tartibiga tajovuz qiladigan ijtimoiy xavfli qilmishdir. Jinoyat kodeksi Maxsus qismining yettinchi bo'limida nazarda tutilgan «Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar»ni harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilishi harbiy intizom va ustav tartibiga katta xavf tug'diradi.

Bugungi kunda mamlakatda har bir sohani zamon talabiga mos ravishda takomillashtirish, sohadagi muammolarni aniqlash va hal qilish masalasi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. O'z navbatida harbiy jinoyatlarni fosh etish, to'g'ri kvalifikatsiya qilish hamda ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish amaliyotida ham bir qator muammolar majudligini inobatga olib, bu turdagi jinoyatlar bo'yicha javobgarlik masalalarini hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish" Konsepsiyasi talablaridan kelib chiqib, kelgusida qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi taklif va mulohazalar ko'rib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xususan, harbiy jinoyat qonunchiligi davlatning majburiy atributi bo'lib, huquqning ikki tarmog'i - jinoiy va harbiy yo'nalishlaridan tarkib topgan. Zamonaviy harbiy jinoyat qonunchiligi, asosan, harbiy jinoyatlarning o'ziga xos elementlarini tavsiflovchi normalardan iborat bo'lib, jinoyat huquqining umumiy qismiga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan bir qator qoidalarni o'z ichiga oladi. Ba'zi mamlakatlarda ushbu qoidalar Harbiy jinoyat Qonuni (Germaniya) yoki Harbiy Adliya kodeksi (Fransiya) shakliga ega, ayrimlarida ular harbiy-huquqiy hujjatlar moddalarida (AQSh, Buyuk Britaniya) hech qanday tizimsiz joylashgan, boshqalarida ular Jinoyat kodeksida jamlangan (aksariyat MDH davlatlari, shu jumladan O'zbekistonda).

Mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasi shuni ko'rsatadiki, harbiy-jinoiy qonunchilik umumiy qismining maqbul tuzilishi quyidagi normalarni o'z ichiga qamrab olishi kerak:

harbiy-jinoiy qonunchilikning hudud va shaxslar doirasida amal qilish chegaralari;
harbiy jinoyat tushunchasi (harbiy xizmatga qarshi jinoyatlar);
harbiy xizmatchilarga jinoiy jazolarning umumiy turlarini qo'llash xususiyatlari;
maxsus harbiy jazolarning turlari va ularni tinchlik davrida ham, urush davrida ham qo'llash tartibi;

harbiy xizmatchilarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning huquqiy asoslari.

Shularni inobatga olib, milliy harbiy jinoyat qonunchiligimizning umumiy qismi institutlari va normalari tizimini xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlillari natijasida, uni yanada takomillashtirish imkoniyatini ko'rsatadi.

Birinchidan, harbiy jinoyat qonunchiligining umumiy qismi normalarini Jinoyat kodeksiga tizimlashtirilmagan shaklda joylashtirish harbiy xizmatchilarning jinoiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yaxlit tasavvur bermaydi. Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida mustaqil harbiy jinoyat qonuni mavjud bo'lmagan sharoitda, Jinoyat kodeksining umumiy qismida, hech bo'lmaganda, jinoyat kodeksining 6-bo'limiga (Voyaga etmaganlar javobgarligining xususiyatlari) o'xshash "Harbiy xizmatchilarning jinoiy javobgarligi xususiyatlari" nomli yangi bo'limini kiritish orqali ajratish kerak deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, qonunda harbiy jinoyat qonunchiligi subyektlari doirasi belgilanishi kerak. Harbiy xizmatchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslardan tashqari, quyidagilar: harbiy organlarga va alohida harbiy xizmatchilarga o'z vazifalarini bajarishlariga qarshi bo'lgan shaxslar; harbiy yoki muqobil davlat xizmatidan bo'yin tovlayotgan shaxslar tan olinishi kerak. Harbiy-jinoiy qonunchilik subyektlariga qonun bilan harbiy xizmatchilar vakolati berilgan tinch aholi, ya'ni fuqarolar ham kirishi kerak.

Uchinchidan, harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan maxsus jazolar tizimi yanada takomillashtirilishini talab qiladi. Ko'rinib turibdiki, xizmat bo'yicha cheklash ko'rinishidagi jazo amaldagi harbiy jinoyat qonunchiligiga asossiz ravishda kiritilgan. Ushbu jazoni qo'llashda quyidagicha paradoksal vaziyat yuzaga keladi, ya'ni davlat sudlangan harbiy xizmatchidan xizmat vazifalarini vijdonan bajarishni talab qiladi, uni harbiy xizmat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan deyarli barcha huquqlardan mahrum qiladi. Bunday xizmatni o'tash, ayniqsa harbiy mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llanilganda samarasiz hisoblanadi. Bundan tashqari, qonunda ushbu jazoni o'tashdan bo'yin tovlangan taqdirda harbiy xizmat cheklovini yanada qattiqroq jazo turi bilan almashtirish imkoniyati ko'zda tutilmagan.

Bizning fikrimizcha, ushbu institutning to'g'ri tartibga solinishi harbiy jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sezilarli darajada sezilarli darajada oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
3. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.2003,N^o 1.
4. O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 11 maydagi «Mudofaa to'g'risida»gi qonuni (yangi tahrir) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi, 2001, N^o 5 (1301), 80-m.

5. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 25 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi, 2003, № 5 (1325), 65-m.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000 yil 15 sentyabrdagi «Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarori. -T.: Qonun nomi bilan. № 4. – 2000. – B. 26-43.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3723-son qarori, <http://lex.uz/docs/3735818>
8. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism. -T.: “Adolat”. -2016.
9. Wehrstrafgesetz (WSTG). Vom 24. Mai 1974. {BGBl I 1213}. Disziplinar – und Strafrecht der Bundeswehr. 8 Auflage, 1978.
10. Code de procedure penale// Code de justice militaire. Paris: Dalloz, 1992 – 1993.
11. Schlueter D.A. The Court – Martial: A Historical Survey // Military Law Review. 1980. Voi. 87.
12. Army Act 1955, Air Fors Act 1955, Naval Discipline Act 1957//Chronological table of the statutes. Pt. 2. London, 1985. P.1002-1017,1042- 1047.